JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 10 - yanvar 4-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

Tuman tibbiyot birlashmasi va unga qarashli oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik poliklinikalarini mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig‘i, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-sentabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, o‘tkazilayotgan profilaktika tadbirlarining samaradorligi uchun mas’uliyatni oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 718-son qarorining 2 va 3-bandlariga asosan tuman tibbiyot birlashmasi va unga qarashli oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik poliklinikalarini mahalla fuqarolar yig‘ini mikrohududlarga biriktirish kasalliklarni vaqtida aniqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tuman tibbiyot birlashmasi va unga qarashli oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik poliklinikalarini mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risidagi 2022-yil 14-dekabrdagi 845-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi tibbiyot birlashmasi va unga qarashli oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik poliklinikalarini mahalla fuqaro yig‘inlaridagi mikrohududlar (ko‘chalar)ga biriktirish haqidagi reja-jadval ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman tibbiyot birlashmasi (S.Baysinov)ga:

- mikrohududdagi og‘ir va yuqumli kasalliklari bor fuqarolar ro‘yxatini shakllantirsin.

4. Tumandagi barcha oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik poliklinikalari shifokorlariga:

- o‘zlari rahbarlik qilayotgan hududdagi fuqarolarni kasalliklarini o‘z vaqtida aniqlash uni oldini olish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosining bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Qo‘ldoshev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**

Paxtakor tuman hokimining
2023 yil 10 yanvardagi
4-3-52-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik poliklinikalarni mahalla fuqarolar yig‘iniga mikrohududlarga biriktirish tavsifi

№	Obyekt turi va joylashishi	Biriktirilgan mahalla fuqarolar yig‘ini
1.	KTMP	“Toshkent” MFY, “Paxtakor” MFY, “Do‘stlik” MFY, “Samarqand” MFY, “Dilorom” MFY, “Suvonobod” MFY, “G‘alaba” MFY, “Oltinko‘l” MFY, “Olmazor” MFY, “Oqbuloq” MFY
2.	19-OP	“Buyuk ipak yo‘li” MFY
3.	Mingchinor OShP	“Mingchinor” MFY, “Nurli Pangat” MFY
4.	Samarqand OShP	“Bog‘ishamol” MFY
5.	Navbahor OShP	“Chamanzor” MFY